

SALOMAT VAFO HIKOYALARIDA AYOL OBRAZI TADQIQI MASALASI

Toshmurodova Zulfiya Bekmurod qizi,*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti**1-bosqich magistranti*ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-5403-0363>e.pochta: karimjonovazulfiya2000@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrida o'ziga xos badiiy-estetik qarashlari bilan ajralib turadigan Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazining talqini va funksional vazifalari tadqiq etiladi. Tadqiqotda yozuvchining hikoyalarida ayol qahramonlar orqali ijtimoiy muhit, ma'naviy-axloqiy muammolar, ruhiy kechinmalar va shaxsiy erkinlik masalalari qanday ifodalanganiga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot maqsadi — Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazining badiiy-estetik xususiyatlari, funksional vazifalari va zamonaviy talqinini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda psixologik tahlil hamda struktur-semantik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Maqolaning obyekt- Salomat Vafo hikoyaalari. Predmeti esa ushbu hikoyalarda ayol obrazi va uning ruhiyati o'rtasidagi bog'liqlik. Tahlil natijasida yozuvchi nasridagi "ayol ruhiyati psixologizmi" va "ekzistensial iztirob" tushunchalarining badiiy sintezi ochib beriladi. Shuningdek, yozuvchi uslubiga xos bo'lgan ramziylik va metaforik obrazlar tizimining ayol personajlar xarakterini ochishdagi innovatsion ahamiyati dalillanadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Salomat Vafo hikoyalarida ayol tasviri va uning ichki kechinmalari estetik va psixologik jihatdan yorqin tarzda ochib bera olingan.

Kalit so'zlar. Salomat Vafo, zamonaviy o'zbek nasri, ayol obrazi, badiiy psixologizm, gender masalasi, ijtimoiy muhit

Аннотация. В данной статье исследуются интерпретация и функциональные особенности образа женщины в рассказах Salomat Vafo, которая занимает заметное место в современной узбекской прозе благодаря своеобразию художественно-эстетических взглядов. Особое внимание уделяется тому, каким образом через женские персонажи в произведениях писательницы раскрываются социальная среда, духовно-нравственные проблемы, психологические переживания и вопросы личной свободы. В рассказах Salomat Vafo женский образ представлен не только в рамках традиционных семейных ролей, но и как личность, способная к самостоятельному мышлению, обладающая внутренними противоречиями и стоящая перед жизненным выбором. В статье анализируются способы художественного раскрытия женского образа, приемы психологического изображения, символические детали, а также формы выражения авторской позиции. Цель исследования заключается в выявлении художественно-эстетических особенностей, функциональных задач и современного осмысления образа женщины в рассказах Salomat Vafo.

Ключевые слова: Salomat Vafo, современная узбекская проза, образ женщины, художественный образ, жанр рассказа, психологическое изображение, гендерная проблематика, социальная среда, духовные ценности, женский характер, авторская позиция, символика, художественное мышление.

Abstract. In this article, the interpretation and functional functions of the female character in the stories of Salomat Vafa, which are distinguished by their unique artistic and aesthetic views in modern Uzbek prose, are studied. In the research, special attention is paid to how the social environment, spiritual and moral problems, spiritual experiences and issues of personal freedom are expressed in the writer's stories through female characters. The purpose of the research is to determine the artistic and aesthetic features, functional tasks and modern interpretation of the female image in the stories of Salomat Vafo. Psychological analysis and structural-semantic approach methods were used in the research. The object of the article is Salamat Wafa stories. The subject of these stories is the connection between the image of a woman and her psyche. As a result of the analysis, the artistic synthesis of the concepts of "psychology of the female psyche" and "existential anguish" in the writer's prose is revealed. Also, the innovative importance of the system of symbolism and metaphorical images characteristic of the

writer's style in revealing the character of female characters is proved. In conclusion, it can be said that in the stories of Salomat Wafo, the image of a woman and her inner experiences are vividly revealed aesthetically and psychologically.

Keywords. *Salomat Vafo, modern Uzbek prose, female image, artistic psychology, gender issue, social environment.*

Kirish. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ayol obrazi badiiy tafakkur rivojini, ijtimoiy ongda o'zgarishlarni hamda inson ruhiyati talqinini yoritishda muhim estetik vositalardan biri sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, mustaqillik davri nasrida ayol obrazining an'anaviy talqinlardan chekinib, murakkab psixologik va ijtimoiy qatlamlarga ega holda tasvirlanishi adabiyotshunoslik tadqiqotlarida dolzarb masalaga aylangan. Bu jarayonda hikoya janri imkoniyatlaridan samarali foydalangan adiblar ijodi alohida e'tiborga loyiqdir. Ana shunday ijodkorlardan biri Salomat Vafo bo'lib, uning hikoyalarida ayol obrazi markaziy badiiy-mazmuniy yukni zimmasiga oladi.

Salomat Vafo hikoyalarida ayol qahramonlar hayotiy voqelik bilan bevosita bog'langan, ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va jamiyat bilan munosabatlari orqali ochib beriladi. Yozuvchi ayol obrazini faqat oilaviy munosabatlar doirasida emas, balki mustaqil shaxs, ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmagan, ma'naviy tanlovlar qarshisida turgan inson sifatida tasvirlaydi. Bu jihat adibaning hikoyalarini zamonaviy adabiy jarayon bilan uzviy bog'laydi hamda ularni gender masalalari kontekstida tahlil qilish imkonini beradi. Adabiyotshunoslikda ayol obrazi ko'pincha jamiyatning axloqiy darajasi, ma'naviy muhit va ijtimoiy munosabatlar ko'zgusi sifatida talqin qilinadi (Normatov, 2000). Shu nuqtayi nazardan Salomat Vafo hikoyalaridagi ayol obrazlari ham muallifning hayotga, jamiyatga va inson ruhiyatiga munosabatini ifodalovchi badiiy vosita sifatida qaraladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi masalasi hozirgacha yetarli darajada tizimli va kompleks tadqiq etilmagan. Asarlardagi ayol qahramonlarning psixologik holati, ularning ijtimoiy muhit bilan ziddiyatlari, ichki monologlar va ramziy detallar orqali ochilishi alohida ilmiy tahlilni talab etadi. Shu bilan birga, ayol obrazining badiiy talqini orqali yozuvchi zamonaviy jamiyatdagi ma'naviy muammolarni yoritadi, insoniy qadriyatlar masalasini ilgari suradi (Qo'shjonov, 2008).

Tadqiqotning asosiy maqsadi – Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazining badiiy-psixologik talqini, xotin-qizlar ichki olamini yoritishdagi o'ziga xos uslubiy yondashuvlar va personaj xarakterini ochib beruvchi badiiy vositalarni tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1) hikoyalarda ayol obrazini yaratishning o'ziga xos badiiy xususiyatlarini aniqlash;
- 2) ayol ruhiyati, uning ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi fojialarni ifodalovchi badiiy-psixologik tasvir vositalarini tahlil qilish;
- 3) adibaning hikoyalarida ayol dunyoqarashi va "ayol tili" (feminin diskurs) masalasini ochib berish;

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: Salomat Vafoning "O'zini izlagan ayol", "Muqaddas manzil" kabi asarlari misolida ayol obrazi ilk

bor zamonaviy adabiyotshunoslik mezonlari asosida yaxlit tizim sifatida tadqiq etildi. Yozuvchi ijodida ayol personajlarning psixologik holati faqat ijtimoiy muammo emas, balki ekzistensial inqiroz va ruhiy evrilishlar kontekstida talqin qilindi. Adiba qoʻllagan ramziy obrazlar va metaforalarning ayol xarakterini ochishdagi estetik vazifasi aniq matniy misollar yordamida dalillandi.

Tadqiqot davomida badiiy matni tahlil qilishning zamonaviy usullaridan foydalanildi. Natijada yozuvchi ijodida ayol obrazining psixologik funksiyasi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Olingan natijalar shuni koʻrsatadiki, Salomat Vafo hikoyalaridagi ayol obrazi oʻzining murakkab ichki ziddiyatlari, anʼanaviy qarashlar va zamonaviy talablar oʻrtasidagi kurashi bilan ajralib turadi. Maqolada keltirilgan xulosalar oʻzbek nasri, xususan, ayollar ijodi va badiiy psixologizm masalalarini oʻrganishda nazariy manba boʻlib xizmat qilishi mumkin. Mazkur tadqiqot quyidagi ilmiy muammoni hal etishga qaratilgan: Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi qanday psixologik funksiyalarni bajaradi va qahramonlar ruhiyatini ifodalashda qanday rol oʻynaydi? Shu muammo doirasida quyidagi tadqiqot savollari ilgari surildi:

1. Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi qanday badiiy shakllarda (ramziy, realistik, modernistik) namoyon boʻladi?
2. Ayol ruhiyatidagi evrilishlar va “ayol fojeasi” badiiy matnda qanday psixologik usullar yordamida ifodalangan?
3. Adibaning hikoyalari zamonaviy oʻzbek hikoyachiligi taraqqiyotida, xususan, xotin-qizlar dunyosini yoritishda qanday estetik qimmatga ega?

Adabiyotlar tahlili. Salomat Vafo ijodi, xususan, uning hikoyalarida ayol obrazi masalasi oʻzbek adabiyotshunosligida umumiy nazariy qarashlar doirasida qisman yoritilgan boʻlsa-da, maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha tizimlashtirilmagan. Zamonaviy oʻzbek nasrida ayol obrazi talqini masalasi adabiyotshunos olimlar tomonidan asosan badiiy obraz nazariyasi, xarakter yaratish muammolari hamda psixologik tasvir usullari nuqtayi nazaridan oʻrganilgan. Xususan, Umarali Normatov (2000) adabiy asarda obraz masalasi orqali muallif dunyoqarashi va ijtimoiy muhitning badiiy ifodasi namoyon boʻlishini taʼkidlaydi. Ushbu qarashlar Salomat Vafo hikoyalaridagi ayol obrazlarini tahlil qilishda muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, Qoʻshjonovning (2018) zamonaviy nasr va undagi xarakter murakkab shaxs sifatida tasvirlanishi adabiy jarayonning muhim belgisi sifatida baholanadi. Bu fikrlar Salomat Vafo hikoyalaridagi ayol obrazlarining jamiyatdagi oʻrni va ularning maʼnaviy-axloqiy muammolar bilan bogʻliqligini ochishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek adabiyotshunosligida ayol obrazi masalasiga doir tadqiqotlarda, shuningdek, Rahimjonov (2012) va Nazarov (2015) kabi olimlarning ishlari ham muhim manba hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlarda ayol obrazi milliy tafakkur, urf-odat va zamonaviy ijtimoiy ong uygʻunligida talqin qilinadi.

Mazkur maqolada sifatli tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot materiali sifatida Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazlari mazmuni hamda inson ruhiyati bilan uyg'unligi chuqur tahlil qilindi. Ushbu yondashuv badiiy matnning semantik qatlamlarini, ramziy ifodalarini va psixologik mazmunini ochib berishda samarali hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida matnni kuzatish, saralash va psixologik interpretatsion, semiotik, badiiy hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalarni asoslashda bir nechta nazariy yondashuvlardan foydalanish orqali tadqiqot triangulyatsiyasi (ma'lumotlar ishonchligini ta'minlash uchun turli metodlardan foydalanish) ta'minlandi.

Tadqiqot Metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda sifatli yondashuv asosiy yo'nalish sifatida belgilandi. Tadqiqot materiali sifatida Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazining badiiy-estetik tabiati, uning ijtimoiy-psixologik qiyofasi hamda ayol ichki dunyosining ekzistensial talqinlari chuqur tahlilga tortildi. Ushbu yondashuv zamonaviy o'zbek hikoyachiligida ayol konsepsiyasini, matndagi metaforik qatlamlarni va qahramon ruhiyatidagi nozik evrilishlarni ochib berishda nihoyatda samarali hisoblanadi. Tahlil jarayonida matnni kuzatish, psixologik, semiotik, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchligi va ilmiy asosini ta'minlash maqsadida ma'lumotlar bir necha nazariy manbalar va tahlil usullari orqali qayta tekshirildi (metodologik triangulyatsiya). Bu esa Salomat Vafo nasridagi ayol olamini bir tomonlama emas, balki yaxlit va ob'ektiv baholash imkonini berdi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqot natijalari Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi badiiy tizimning markaziy unsurlaridan biri ekanini ko'rsatdi. Hikoyalarda ayol qahramonlar voqealar rivojini harakatga keltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'lib, ular orqali ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, shaxsiy erkinlik va ma'naviy tanlov masalalari yoritiladi. Tahlil jarayonida ayol obrazlari an'anaviy passiv qahramon darajasidan chiqib, faol, ichki ziddiyatlarga ega va mustaqil qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanganligi aniqlandi. Bu holat zamonaviy o'zbek nasrida ayol obrazining funksional imkoniyatlari kengayib borayotganini tasdiqlaydi (Normatov,2000).

1-jadval. Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi va ularning badiiy-psixologik tavsifi

Hikoya nomi	Ayol obrazi	Obrazning badiiy-psixologik tavsifi
“O‘zini izlagan ayol”	Bosh qahramondagi ayol obrazi	Ichki bo‘linish, hayotiy tanlov va ma’naviy iztirob holatida gavdalanadi.
“Muqaddas manzil”	Ona obrazi	Farzand va oilaga daxldorlik hissi kuchli, fidoyilikka asoslangan obraz.
“Farida”	Farida obrazi	Ruhiy izlanishdagi o‘zligini anglashga intilayotgan ayol.
“Telefon”	Ona obrazi	Sog‘inch,mehr va ruhiy bog‘liqlik timsoli sifatida berilgan obraz.
“Elat”	Ijtimoiy muhitdagi ayol obrazi	Taqdir sinovlari qarshisida ojiz, biroq sabr-matonatni saqlab qolgan obraz.

Bu kabi ayol obrazlari adabiyotimizda Alisher Navoiyning—“Farhod va Shirin”(2020), Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” (2019), Abdulla Qahhorning

“Dahshat” (2018), va boshqa juda ko‘p asarlarda juda ta’sirli va kuchli mahorat bilan yoritib berilgan. Shunday ekan, Salomat Vafo hikoyalaridagi ayol obrazlarini qiyosiy tahlil qilish o‘zbek adabiyotida ayol timsolining tarixiy taraqqiyoti, mazmuniy kengayishi va badiiy talqinidagi o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rsatadi. “Farhod va Shirin” da ayol obrazi, avvalo, ideal ma’naviy-estetik mezonlar asosida yaratiladi. Shirin go‘zallik, sadoqat, aql-zakovat va qat’iyat timsoli sifatida tasvirlanadi. Bu davrda ayol obrazi yuksak axloqiy fazilatlarni mujassam etuvchi badiiy ideal darajasiga ko‘tariladi (Navoiy,2020). “O‘tkan kunlar” da esa ayol obrazi ijtimoiy muhit bilan yanada chambarchas bog‘lanadi. Ayniqsa, Kumush timsolida ayolning nafaqat go‘zalligi va sadoqati, balki murakkab ijtimoiy munosabatlar qurshovidagi fojeali taqdiri ham ochib beriladi. Bu asarda ayol o‘z davrining urf-odatlarini, oilaviy ziddiyatlari va ijtimoiy cheklovlari ta’sirida yashovchi shaxs sifatida gavdalanadi (Qodiriy,2019). “Dahshat” da ayol obrazi yanada keskinroq ijtimoiy-psixologik mazmun kasb etadi. Abdulla Qahhor ayolning jamiyatdagi zaifligi, qo‘rquv va bosim ostidagi ruhiy holatini chuqur tasvirlaydi. Bu yerda ayol obrazi ko‘proq ijtimoiy adolatsizlik va ma’naviy muhitning qurboni sifatida namoyon bo‘ladi (Qahhor,2018).

Salomat Vafo hikoyalarida esa ayol obrazi yangi badiiy talqinga ega bo‘ladi. Zamonaviy ayol endi faqat go‘zallik, sadoqat yoki fojeali taqdir egasi sifatida emas, balki o‘z ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari, mustaqil qarashlari va shaxsiy tanlovlari bilan ajralib turadigan individual xarakter sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi ayolning ichki monologi, ruhiy iztirobi, ijtimoiy muhit bilan to‘qnashuvi orqali bugungi davr ayolining murakkab ma’naviy-psixologik olamini ochib beradi. Shu jihatdan, o‘tgan davr adabiyotida ayol obrazi ko‘proq jamiyat belgilab bergan axloqiy mezonlar, oilaviy burch va ijtimoiy cheklovlar doirasida talqin etilgan bo‘lsa, bugungi adabiyotda, xususan, Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi individual ong, ichki erkinlik va shaxsiy o‘zlikni anglash masalalari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Qo‘shjonov(2008) ta’kidlashicha, hikoyalarda ayol obrazining psixologik talqini muhim o‘rin tutadi. Muallif ayol qahramonlarning ichki monologlari, sukut va ramziy detallar orqali ularning ruhiy holatini ochib beradi. Natijada ayol obrazi faqat syujet elementi emas, balki muallifning ijtimoiy-estetik qarashlarini ifodalovchi badiiy vositaga aylanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi ko‘pincha jamiyat bilan ziddiyat holatida tasvirlanadi va bu ziddiyatlar orqali muallif mavjud ijtimoiy muammolarga munosabat bildiradi..

Quyidagi jadvalda tahlil qilingan hikoyalarda ayol obrazining asosiy badiiy funksiyalari umumlashtirildi.

2 - jadval. Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazining badiiy funksiyalari

Badiiy funksiya	Uchragan holatlar soni	Umumiy ulushi (%)
Psixologik holatni ochib berish	8	32 %
Ijtimoiy muammolarni yoritish	6	24 %
Oilaviy munosabatlarni ifodalash	5	20 %
Ramziy-majoziy mazmun tashuvchisi	4	16 %
Muallif pozitsiyasini ifodalash	2	8 %

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazining eng ustuvor vazifasi psixologik holatni ochib berish bilan bog'liq. Bu yozuvchining inson ruhiyatiga chuqur e'tibor qaratishini tasdiqlaydi. Ijtimoiy muammolarni yoritish funksiyasi ham salmoqli ulushga ega bo'lib, ayol obrazi orqali jamiyatdagi adolatsizlik, befarqlik va ma'naviy inqiroz holatlari ifodalanadi. Oilaviy munosabatlar doirasidagi tasvirlar esa ayol obrazining an'anaviy qatlamlari bilan zamonaviy talqinlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi.

Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi an'anaviy badiiy qoliplardan chiqib, zamonaviy adabiy tafakkur talablari asosida shakllanganini ko'rsatadi. Muhokama jarayonida tahlil qilinishicha, yozuvchi ayol obrazini faqat voqealar rivojiga xizmat qiluvchi ikkilamchi qahramon sifatida emas, balki ijtimoiy va ma'naviy muammolarni ochib beruvchi markaziy badiiy figura darajasiga ko'taradi. Bu holat ayol obrazining funksional imkoniyatlarini kengaytiradi va uni mustaqil badiiy-estetik hodisa sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Salomat Vafo hikoyalarida ayol qahramonlar ko'pincha ichki ziddiyatlar girdobida tasvirlanadi. Ushbu ziddiyatlar jamiyat bosimi, an'anaviy qarashlar va shaxsiy erkinlik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Ayol obrazining ruhiy kechinmalari orqali muallif zamonaviy insonning ichki iztiroblarini umumlashtiradi. Bu jihat ayol obrazini faqat gender masalalari doirasida emas, balki umuminsoniy muammolar kontekstida tahlil qilish imkonini beradi (Normatov,2000).

Muhokama davomida e'tiborni tortadigan yana bir jihat shundaki, Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi passiv tasvirlanmaydi. Aksincha, u voqealarga munosabat bildiruvchi, qaror qabul qiluvchi va ma'naviy tanlov qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat ayol obrazining badiiy faolligini oshiradi hamda yozuvchining ayol shaxsiga nisbatan ijobiy estetik munosabatini ifodalaydi. Jumladan, yuqorida keltirilgan "O'zini izlagan ayol", "Muqaddas manzil", "Farida", "Telefon" hikoyalaridagi ayol obrazlari orqali muallif ayolning ichki kechinmalari, hayotiy qarorlari hamda ma'naviy izlanishlarini badiiy talqin etadi. Mazkur obrazlar nafaqat oilaviy muhitdagi, balki jamiyatdagi ijtimoiy-axloqiy munosabatlarning ham muhim ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, adiba hikoyalaridagi ayol obrazi bugungi o'zbek nasrida inson ruhiyati, ijtimoiy mas'uliyat va shaxsiy o'zlik masalalarini yoritishda muhim badiiy vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslikda ayol obrazi jamiyatdagi ma'naviy muhitning ko'zgusi sifatida qaralishi bejiz emas. Salomat Vafo hikoyalarida ham ayol qahramonlar orqali jamiyatdagi axloqiy inqiroz, befarqlik va ma'naviy bo'shliqlar ochib beriladi.

Shuningdek, muhokama jarayonida tahlil qilinishicha, ayol obrazining ramziy-majoziy qatlamlari ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim hikoyalarda ayol qahramon nafaqat individual shaxs, balki ma'naviy poklik, sabr-toqat yoki ichki qarshilik timsoli

sifatida talqin etiladi. Bu ramziylik ayol obrazini badiiy umumlashtirish darajasiga ko'taradi va asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtiradi (Rahimjonov,2012).

Mazkur tadqiqot Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi zamonaviy o'zbek nasrining muhim badiiy-estetik hodisalaridan biri sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, yozuvchi ayol obrazini an'anaviy stereotiplar doirasida cheklab qo'ymaydi, balki uni murakkab ichki dunyoga ega, ijtimoiy muhit bilan faol munosabatda bo'luvchi va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu holat Salomat Vafo hikoyalarini zamonaviy adabiy jarayon bilan uzviy bog'laydi hamda ularning g'oyaviy-badiiy salmog'ini oshiradi.

Demak, tadqiqot jarayonida ayol obrazining psixologik talqini muhim o'rin tutishi aniqlandi. Hikoyalarda ayol qahramonlarning ichki kechinmalari, sukut, ramziy detallar va badiiy tafsilotlar orqali ochib beriladi. Bu esa yozuvchining inson ruhiyati masalalariga chuqur e'tibor qaratishini ko'rsatadi. Ayol obrazi ko'pincha jamiyat bilan ziddiyat holatida tasvirlanib, ushbu qarama-qarshiliklar orqali ijtimoiy adolatsizlik, ma'naviy inqiroz va shaxsiy erkinlik masalalari badiiy umumlashtirish darajasiga ko'tariladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Salomat Vafo hikoyalarida ayol obrazi ko'p qatlamli, funksional jihatdan boy va zamonaviy badiiy tafakkur mahsuli sifatida talqin etiladi. Ushbu obrazlar yozuvchining individual ijodiy uslubini belgilash bilan birga, zamonaviy o'zbek adabiyotida ayol shaxsining yangi badiiy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kelgusida Salomat Vafo ijodini gender, psixologik va ijtimoiy yo'nalishlar asosida yanada chuqurroq o'rganish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqot zamonaviy o'zbek nasrida ayol obrazining evolyutsiyasini aniqlash, uning badiiy-estetik funksiyalarini kengroq talqin etish hamda milliy adabiyotimizda ayol shaxsining ijtimoiy va ma'naviy maqomini baholashda muhim metodologik manba vazifasini o'taydi. Bu esa o'z navbatida, adabiyotshunoslikda ayol obrazini o'rganishga doir yangi ilmiy yondashuvlar va konsepsiyalarning shakllanishiga turtki beradi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlarda, Salomat Vafo hikoyalaridagi ayol psixologiyasi va "ichki monolog" uslubini yana chuqurroq o'rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, adabiyotshunoslikda ayol ijodkorlar nasrini faqat ijtimoiy mavzu doirasida emas, balki "gender poetikasi" va "psixologik determinizm" tamoyillari asosida tahlil qilish metodikasini takomillashtirish, boshqa turli metodlar asosida tahlil qilish muhim ilmiy natijalarga erishishga turtki bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yozuvchi asarlaridagi milliy va zamonaviy ayol qiyofasining badiiy sintezini maktab darsliklaridagi tahlil jarayonlariga tatbiq etish, o'quvchi-yoshlarda ayol shaxsiga nisbatan yangicha estetik qarashni shakllantirish ilmiy tadqiqotni yangi bosqichlarga olib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Navoiy, A. (2020). Farhod va Shirin. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Nazarov, B. (2015). Zamonaviy o'zbek adabiyoti va badiiy tafakkur masalalari. Toshkent: Fan.
3. Normatov, U. (2000). Badiiy asar tahlili asoslari. Toshkent: Sharq.
4. Qahhor, A. (2018). Dahshat. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Qodiriy, A. (2019). O'tkan kunlar. Toshkent: Navro'z.
6. Qo'shjonov, M. (2008). Adabiy jarayon va badiiy obraz muammolari. <https://natlib.uz> Toshkent: O'qituvchi.
7. Rahimjonov, N. (2012). O'zbek nasrida xarakter va psixologizm masalalari. Toshkent: Akademnashr.
8. Vafo, S. (2018). Hikoyalar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
9. Vafo, S. (2021). Tanlangan asarlar. Toshkent: Yangi asr avlod <https://natlib.uz>

